



## CRITICAL EXAMINATION OF PARTIES' CHOICE OF LAW

*Gulsanam Y. Khatamjonova*

*PhD student*

*Tashkent State University of Law*

*Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

---

**Key words:** choice of law, contractual relations of the parties, law applicable to the contractual relations of the parties, agreement on choice of law, implied law, choice of express law.

**Received:** 22.08.24

**Accepted:** 24.08.24

**Published:** 26.08.24

**Abstract:** This article examines the second most important feature of the principle of autonomy of will, which is the choice of the law of the parties. The article explores and discusses the issues of choice of law by the parties within the framework of their contractual relations. Disputes arising from the contractual relationship of the parties will be resolved on the basis of the law or laws of which country and its meaning will be explained with the help of examples. It is known that the right of the parties to choose the law on the basis of a contract is recognized in the countries of the European Union, the USA and countries that adhere to the Roman law system, and the parties can choose the law on the basis of a contract within a contract. This article discusses the issues of choice of law by the parties on the basis of an agreement and, mainly, issues of the specifics of the choice of law applied to their relations when their choice is not clearly expressed by the parties in the agreement or when the law is not chosen by the parties.

---

## TARAFLARNING KELISHUV ASOSIDA HUQUQNI TANLASH MASALALARINING QIYOSIY HUQUQIY TAHLILI

*Gulsanam Ya. Xatamjonova*

*tayanch doktorant*

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [gkhatamjonova@gmail.com](mailto:gkhatamjonova@gmail.com)*

---

**MAQOLA HAQIDA**

---

**Kalit soʻzlari:** huquqni tanlash, taraflarning shartnomaviy munosabatlari, taraflarning shartnomaviy munosabatlari uchun qoʻllaniladigan huquq, huquqni tanlash borasida kelishuv, ishora etilgan huquq, ochiq ifoda etilgan huquqni tanlash.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada erk muxtoriyati prinsipining ikkinchi eng muhim xususiyati boʻlgan taraflarning huquqni tanlash masalalari muhokama qilinadi. Taraflarning shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarini hal etish uchun huquqni tanlashning oʻziga xos jihatlari ajratib koʻrsatiladi. Taraflarning shartnomaviy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarini qaysi mamlakat huquqi yoki qonunlari asosida hal etilishi va uning ahamiyati misollar yordamida izohlanadi. Maʼlumki, taraflarning kelishuv asosida huquqni tanlay olishi dunyo boʻylab koʻp mamlakatlarda tan olingan va taraflar shartnomada kelishuv asosida huquqni tanlay oladilar. Ushbu maqolada taraflarning kelishuv asosida huquqni tanlash masalalari va asosiysi taraflar tomonidan shartnomada ularning tanlovi ochiq ifoda etilmagan yoki taraflar tomonidan huquq tanlanmaganida ularning munosabatlari uchun tadbir qilinadigan huquqni tanlashdagi oʻziga xoslik masalalari oʻrganib chiqiladi.

---

**КРИТИЧЕСКОЕ РАССМОТРЕНИЕ ВЫБОРА СТОРОНАМИ ПРАВА**

*Гулсанам Я. Хатамжонова*

*Докторант*

*Ташкентского государственного юридического университета*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** выбор права, договорные отношения сторон, право, применимое к договорным отношениям сторон, соглашение о выборе права, подразумеваемое право, выбор явно выраженного права.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается вторая важнейшая особенность принципа автономии воли, заключающаяся в выборе права сторон. В статье исследуются и обсуждаются вопросы выбора права сторонами в рамках их договорных отношений. Споры, возникающие из договорных отношений сторон, будут разрешаться на основании закона или законов какой страны и его значение будет объяснено с помощью примеров. Известно, что право сторон выбирать право на основании договора признается в странах Европейского Союза, США и странах, придерживающихся системы римского права, а стороны могут выбирать право на основании договора в договор. В данной статье рассматриваются вопросы выбора права сторонами на

---

основании договора и, главным образом, вопросы специфики выбора права, применяемого к их отношениям, когда их выбор не выражен сторонами четко в договоре или когда право не выбирается сторонами.

---

### KIRISH

Erk muxtoriyati prinsipi doirasida taraflarning huquqni tanlashi prinsipning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Ma'lumki, taraflar kelishuv asosida ularning shartnomaviy munosabatlariga tadbiq qilinadigan huquqni tanlashlari mumkin. Ushbu qoida amaldagi O'zbekiston respublikasining Fuqarolik Kodeksi bilan ham mustahkamlab qo'yilgan. Fuqarolik Kodeksining 1189 – moddasida shartnoma, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, taraflarning kelishuviga ko'ra tanlangan mamlakat huquqi bilan tartibga solinadi [1]. Ushbu moddada taraflarning erk muxtoriyati tamoyili, shartnomaning taraflari o'z kelishuvlari bilan ularning munosabatlarini tartibga soladigan chet mamlakat qonunchiligini talashga haqliligini ko'rsatadi. Qoidaga ko'ra, bunday tanlov shartnomaning taraflari tomonidan hujjat matnining o'zida amalga oshiriladi va shu tariqa kollizion muammoni hal qiladi.

Albatta, taraflar har doim ham huquq borasidagi tanlovlarini shartnomada ko'rsatmasligi yoki shunchaki bu haqda kelishmasliklari mumkin. Lekin taraflar o'zlarining shartnomaviy munosabatlaridan kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni hal etish uchun kelishuvlari mavjud bo'lganida, ushbu kelishuvni shartnomalarida ko'rsatilishi huquqni tanlash masalalarida muammolar yuzaga kelishining oldini oladi.

### ASOSIY QISM

Tarixan, taraflarning shartnomaviy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar uchun tadbiq qilinadigan huquqni tanlashda hududiy faktorlar yuqori rol o'ynagan [2]. Buni qadimgi Rim huquqi qonunlaridan ham ko'rishimiz mumkin. Taraflarning yashash hududi yoki ular o'rtasidagi shartnomalarning bajarilish hududidagi mamlakatlarning qonuni bevosita taraflarning shartnomaviy munosabatlarini hal qiluvchi huquq deb hisoblangan [3]. Taraflarning irodalari faqatgina mavjud imkoniyatlardan birini tanlash bilan kifoyalangan. Lekin erk muxtoriyati prinsipining keng qo'llanishi, shuning barobarida taraflarning huquqni kelishuv asosida tanlashi ortib borishi bilan huquqni tanlashdagi hududiy faktorlar kamroq ahamiyat kasb etib taraflarning irodalari asosiy hal qiluvchi ahamiyat kasb eta boshlagan [4]. Taraflar nafaqat mavjud imkoniyatlardan birini tanlashga, balki shartnomalarining muhim jihatlarini hisobga olib boshqa mamlakatlar qonunlarini ham shartnomada kelishuv asosida keltirishlari mumkinligiga yo'l ochildi. Taraflarning shartnomalarida aniq ifoda etilgan tanlovi sudlar tomonidan tan olinib taraflarning irodasi sifatida baholanishni boshlagan. Erk muxtoriyati prinsipining keng miqyosda

qo'llanilishi hattoki huquqshunoslar tomonidan taraflarning irodasi ular tomonidan kelishuv asosida huquqni tanlash uchun yagona asosdir deb hisoblashlariga ham olib kelgan [5]. Lekin taraflarning irodasi hamisha ham ular tomonidan tanlangan huquqning sudlar tomonidan tan olinib qo'llanilishi uchun asos bo'lavermaydi. Ayrim holatlarda, misol uchun taraflar tomonidan shartnomalarida ochiq ifoda etilmasdan, ishora sifatida keltirib ketilgan tanlovlari [6] sudlar tomonidan ularning tanlovlari rad etilishiga va shartnomaviy munosabatlar uchun huquq hududiy faktorlarni hisobga olgan holda tanlanish holatlari ham mavjud.

Bilamizki, taraflar o'zlarining tanlovini nafaqat ochiq ifoda etish orqali, balki shartnomaning ayrim qismlarida ishora etish orqali keltirishi mumkin [7]. Birinchi holatda taraflarning tanlovini amalga oshirishda muammolar yuzaga kelmaydi lekin ikkinchi holatda taraflarning irodalarini tushunishda sudlarda tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Taraflarning o'z tanlovlarini ishora tarzida yoki indamasdan ifoda etgan holatlarini professor K. Rashidov ish jarayonlarining murkkablashishi bilan belgilaydi. Bunday holatda sudlar taraflarning ishoraviy erkini aniqlashiga to'g'ri kelishi, bunday erk mazmuni shartnoma qoidalarini tahlil qilish bilan bir qatorda, uning tuzilishi va bajarilishining turli holatlarini tahlil qilish yo'li bilan belgilashiga to'g'ri kelishini qayd etadi [8].

Taraflar tomonidan kelishuv asosida huquq tanlanib va u shartnomada ochiq ifodalansa, ularning tanlovini tan olish va qo'llash masalalarida sudlarda muammolar yuzaga kelish ehtimolligi pastroq bo'ladi. Negaki, sudlar taraflarning shartnomalarida ko'zda tutilgan huquqni qo'llayveradi. Taraflarning tanlovi ochiq ifoda etilganda, qoida sifatida sudlar ularning tanlovini qabul qilib tan olishadi. Shu sababli ham, dastlab taraflarning kelishuvi asosida huquqni tanlashga oid shartnomalarida taraflarning tanlovi ochiq oshkora keltirilishi kerakligi belgilangan [9]. Ayni shu masaladagi eng qadimiy keys 1939 – yilda Vita Food Products Inc. v Shipping Co. keysiga tegishlidir [10]. Ushbu keysni ko'rib chiqqan sudya tomonidan keysga tegishli quyidagi xulosalar keltirilgan:

...taraflar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlar ular tomonidan tanlangan huquq asosida ko'rib hal etiladi. Ular tomonidan tanlangan huquq ochiq ifoda etilganida, ularning tanlovi qonuniy hisoblanadi ...

Lekin taraflar har doim ham tanlovlarini ochiq bildirib shartnomada aks ettiravermaydilar, ayrim holatlarda ular tanlovini ishoralar asosida ham bildirishi mumkin. Bunda taraflar huquqni bevosita tanlamasdan shartnomalari mazmunidan kelib chiqib bilvosita tanlaydilar. Ularning shartnomalaridan taraflarning huquq borasidagi tanlovini tushunish mumkin bo'lsa ham, buni taraflar shartnomalarida qoida sifatida kiritmaydilar. Bu holatda sudlar taraflarning ishora asosidagi tanlovini aniqlashga va ushbu tanlov asosida taraflarning nizolarini hal etishiga to'g'ri keladi. Lekin taraflarning ishora etilgan erkini va tanlovini aniqlash har doim ham osonlik bilan

amalga oshmaydi. Ushbu jarayonlarning murakkabligini professor K. Rashidov quyidagi izohlar bilan ifodalaydi:

Qo‘llaniluvchi huquqni aniqlashning ushbu yo‘lining murakkabligi, turli vaziyatlar uchun yaroqli bo‘lgan yaxlit tavsiyalar ishlab chiqishning gumonligidadir – ularning har biri yetarli darajada noyob va alohida yondashuvni talab etadi.

Qo‘shimcha murakkablik natijaning oldindan bilib bo‘lmasligidadir: sud yoki arbitraj qo‘llaniluvchi huquqqa yakuniy qaror chiqarish uchun qanday omillarni ahamiyatliroq deb topishni har doim ham aniqlik bilan aytib bo‘lmaydi.

Taraflar tomonidan tanlov ishora tarzida berilganida, sudlar oldida ikki masala turadi. Birinchisi, taraflar tomonidan ishora qilingan huquq asosida ular o‘rtasidagi nizoni ko‘rib hal etish yoki taraflarning ishora qilingan tanlovini rad etib, hududiy faktorlar asosida huquqni tanlab nizolarni hal etishdir. Sudlar ushbu holatda qaysi yo‘lni tanlash to‘g‘risida bir qarorga kelishi kerak bo‘ladi. Taraflarning ochiq ifoda etilmagan tanlovi mavjud bo‘lganida ham, sudlardan taraflarning irodasini va ular qaysi qonunga ishora qilayotganligini aniqlab olishi kerak bo‘ladi [11].

Ushbu tadqiqotdagi asosiy masalalar bilan birgalikda arbitraj kelishuvi bitimlarining o‘ziga xos tabiati hamda ushbu kelishuv bitimlarining huquqiy ta‘riflari bilan harakterlari turli qonunchilik manbaalari yordamida o‘rganib chiqiladi.

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal yuridik o‘rganish usullaridan foydalanildi.

Taraflarning tanlovi ochiq ifoda etilmaganida, sudlar tomonidan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan usullar to‘g‘risida ham turlicha qarashlar mavjud. Dastlab, 1939 – yilda Vita Food Products v Unus Shipping co. o‘rtasidagi keydsan so‘ng ushbu ishni ko‘rib chiqqan sudya tomonidan taraflar shartnomalarida o‘zlarining tanlovini ochiq ifoda etmaganlarida ikki bosqichli tartibga amal qilishi lozimligi ilgari surilgan [12]. Unga asosan, sudyalar taraflarning shartnomalarini ko‘rib chiqib ular tomonidan ochiq ifoda etilgan tanlovni topishga harakat qilishi kerak. Har doim sudlar taraflarning shartnomalarini to‘laligicha o‘rganishi va taraflar tomonidan ularning tanlovi haqida qoida mavjud emasligiga ishonch hosil qilmog‘i lozim. Agar shartnomaning biror bir qismida bunday tanlov uchramasa, taraflar tomonidan ishora qilinayotgan huquqni shartnoma bandlari va boshqa shartlar asosida aniqlab, ushbu huquq asosida ularning shartnomaviy munosabatlaridan kelib chiqqan nizolarni hal etishi kerak [13]. Taraflarning ishora etilgan huquqini aniqlash sudlar oldiga murakkab vazifani yuklaydi. Sudlar taraflarning shartnomalarini to‘laligicha o‘rganishi taraflarning xohishlarini tushunishga harakat qilishi va ushbu shartnomalardan taraflar qanday natijalar olishga harakat qilyotganligiga qarab tanlov yuzasidan xulosaga kelishi lozim. Lekin ushbu holatda ham, taraflarning ishora etilgan tanlovini shartnoma shartlariga qarab aniqlash murakkab, ayrim holatlarda baxsli masala bo‘lishi mumkin.

Keyinchalik 1954 – yilda *The Assunzione* deb nomlangan keysda, sudlar tomonidan taraflarning tanlovi ochiq ifoda etilmaganida, sudlar tomonidan amal qilinishi lozim bo‘lgan usul haqida birmuncha aniqroq tushuncha berib o‘tilgan. Unga asosan, sudlar shartnomani va boshqa barcha jihatlarni hisobga olishi va shartnoma tuzilyotgan vaqtda adolatli va to‘g‘ri fikrlaydigan shaxslar tomonidan qanday huquq tanlanishi mumkin ekanligidan kelib chiqib qaror qabul qilishi kerak [14] deb hisoblagan. 1939 – yildagi keysga nisbatan, ushbu izoh birmuncha aniqroq bo‘lsa ham, ushbu izoh ham sudlar uchun ayrim qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Shu sababli ham, yuqoridagi fikrlarga qarama qarshi tarzda birinchi marotaba Lord Justice Hodson taraflarning aniq fikri mavjud bo‘lmaganida, ularning fikridan tashqari masalalarni hal etish qonuniy emas deya baholagan [15]. Taraflarning aniq ifoda etilgan fikri mavjud bo‘lmaganida, taraflardan boshqa har qanday shaxs tomonidan bildirilgan fikr va xulosalar noaniq va baxslarga sabab bo‘lishi va taraflarning aniq irodasini ochib berolmasligi mumkin deb fikrini izohlagan. Ushbu izohga o‘xshash tarzda, Buyuk Britaniya Lordlar Palatasi tomonidan *Whitworth Street Estates (Manchester) Ltd v. James Miller & Partners Ltd* o‘rtasidagi keysda ham, taraflar tomonidan ularning tanlovi ochiq ifoda etilmaganida, Palata tomonidan ular o‘rtasida shartnoma shartlari amalga oshirilgan mamlakat huquqi ular o‘rtasidagi nizoni hal etish uchun qo‘llangan. Buning sababini Lord Reid taraflarning ochiq tanlovi (*express choice of law*) mavjud bo‘lmaganida, taraflarning ishoraviy tanloviga amal qilishdan ko‘ra, hududiy faktorlarni hisobga olib huquqni tanlash maqbul ekanligi bilan izohlagan [16].

Xalqaro xususiy huquqiy munosabatlar rivojlanib borishi bilan huquqshunoslar va sudlar tomonidan taraflarning kelishuv asosida huquqni tanlashi borasidagi fikrlari ham o‘zgarib rivojlanib borgan. Albatta, bu o‘zgarishni ilgari fikrlardan mutlaqo yangicha fikrlar deb hisoblamasligimiz lozim.

Misol uchun 1939 – yilda *Vita Food Products v Unus Shipping co.* o‘rtasidagi keysdan so‘ng ushbu ishni ko‘rib chiqqan sudya tomonidan taraflar shartnomalarida o‘zlarining tanlovini ochiq ifoda etmaganlarida ikki bosqichli tartibga amal qilishi lozimligi ilgari surilgan bo‘lsa, bugungi kunda uch bosqichli tartib amal qiladi. Ushbu bosqich birinchi navbatda taraflar tomonidan ularning shartnomalarida ifoda etilgan huquqni aniqlash va ushbu huquq mavjud bo‘lganida, ushbu huquq asosida ularning nizolarini ko‘rib hal etishdir. Ikkinchi bosqich bu taraflar tomonidan ularning shartnomalarida ishora etilgan huquqni aniqlash va shu asosda shartnoma shartlari va barcha boshqa holatlarni hisobga olib mos huquqni tanlash va shu asosda ularning nizolarini hal etishdir. Uchinchi bosqich bu taraflarning shartnomalaridan ular ishora qilgan yoki ko‘zda tutishi mumkin bo‘lgan huquqni aniqlashning umuman imkoni bo‘lmaganda esa, taraflarga yoki ularning shartnomaviy munosabatlari bilan eng uzviy bog‘langan mamlakat huquqi ularning nizolari uchun qo‘llaniladi [17].

Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan tasdiqlangan. Fuqarolik kodeksining 1190 – moddasida taraflarning kelishuvi bo'lmagan taqdirda taraflarning shartnomasiga qo'llaniladigan huquqni aniqlash bo'yicha qoidalar keltirilgan. Ushbu moddada o'n beshta toifadagi shartnomalar yuzasidan qo'llaniladigan huquqning aniq qoidasi, shuningdek taraflar mana shu toifada kelishuvlar tuzilmaganida esa, tuzilgan shartnomaning mazmuni uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ijroni amalga oshirayotgan taraf ta'sis etilgan, turar joyga ega bo'lgan yoki asosiy faoliyat joyi bo'lgan mamlakatning huquqi qo'llaniladi. Shartnomaning mazmuni uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ijroni aniqlashning imkoniyati bo'lmagan taqdirda, shartnoma eng uzviy bog'langan mamlakatning huquqi qo'llanilishi belgilangan. Ushbu moddada taraflarning huquqni tanlashiga oid uchinchi bosqichga amal qilish ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu uch bosqichning birinchi bosqichi taraflarning shartnomalaridan aniqlashtiriladi, shuning uchun qo'shimcha izohga hojat qolmaydi. Lekin ikkinchi va uchinchi bosqichda sudlar tomonidan qanday faktorlar qaror qabul qilishda hisobga olinishi mumkinligi baxsli va izoh talabdir.

Ikkinchi bosqichga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunda taraflarning ishora etilgan tanlov huquqi mavjud bo'lishi aytilmoqda. Ishora asosidagi tanlov huquqi degan tushunchaning o'zi chalg'ituvchi ma'noga ega. Taraflar tanlovlarini aniq va ochiq ifoda etmasdan, qanday qilib tanlovga ishora qilishi mumkin? Albatta, har qanday shartnomalashuvchilar ham ularning shartnomaviy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni xorijiy mamlakatlar huquqi bilan hal etishga ehtiyoj sezmaydi [18]. Ular shunchaki boshqa mamlakat huquqini tanlash haqida aniq ifoda etilgan tanlovlarini ifoda etmaganlarida, ular shartnomalarini mamlakatlari huquqi yoki shartnomalar ijro etiladigan mamlakat huquqi asosida nizolarini hal etishga ishora qilgan bo'lishlari mumkin. Taraflar tomonidan shartnomalarida huquqni tanlash to'g'risida kelishuv mavjud bo'lmasdan, ular tomonidan nizolarini hal etuvchi sud to'g'risida kelishuv bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda taraflar ular tanlagan sud joylashgan mamlakatning huquqiga amal qilishni ishora qilgan bo'lishlari mumkin. Ushbu prezumpsiyaga ikki holat sabab bo'lishi mumkin. Birinchisi, taraflar ular tanlagan sudlar xorijiy mamlakat huquqini qo'llashi mumkin deb hisoblashi kamdan kam uchraydigan holat, deyarli uchramaydi deyish ham mumkin. Taraflar sudni tanlash bilan birga o'sha mamlakatning huquqini ham aniq oshkor ifoda etmasdan tanlagan bo'lishlari mumkin. Albatta, har doim ham shartnoma tuzuvchilar sudlarni tanlaganlarida sudlar joylashgan mamlakatning qonunlariga amal qiladi deb hisoblashi va ular ushbu mamlakat huquqini tanlaganliklari to'g'risida alohida qoida kiritib o'tirmasliklari ham mumkin. Ikkinchisi, taraflar uchun ham sudlar uchun ham xorijiy mamlakatlar huquqini qo'llamasdan, o'zlarining huquqini qo'llash ham osonroq, ham kamroq xarajatlar bilan nizolarini hal etishga sabab bo'ladi [19]. Ushbu holatlarning mavjudligi sudlar uchun taraflar tomonidan ishora qilingan huquqni

aniqlash va ushbu huquq asosida ularning nizolarini hal etishga asos bo'ladi. Taraflarning sudlarni tanlashga oid kelishuvlari yoki asosiy shartnomalarida sudlarni tanlashga oid kelishuvlari huquqni ochi ifoda etmasdan ko'zda tutishga yorqin misol bo'la oladi.

Uchinchi bosqich sudlar tomonidan birinchi yoki ikkinchi bosqichga amal qilishning imkoniyati mavjud bo'lmaganida amalga oshiriladi. Bunda taraflarning huquqni tanlash haqida aniq ochiq ifoda etilgan tanlovi yoki ularning shartnomalari bandlaridan taraflar ko'zda tutayotgan bo'lishi mumkin bo'lganida, taraflar shartnomaviy munosabatlari bilan eng yaqin bog'langan mamlakat huquqi qo'llaniladi. Albatta, bu bosqich ham izoh talab qiladi. Taraflar shartnomalari bilan eng uzviy bog'langan mamlakat tushunchasini aniqlash ayrim holatlarda chalkashlik yoki yanglishishga olib kelishi mumkin [20]. Bunda sudlar shartnomaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib taraflarning mamlakatlari huquqini yoki taraflar tomonidan shartnoma shartlari bajariladigan mamlakat huquqini yoki taraflar kelajakda shartnomaviy munosabatlarga kirishishi mumkin bo'lgan mamlakat huquqini ularning nizolari uchun qo'llashi mumkin. Bular sudlar qo'llashi mumkin bo'lgan usullardir. Lekin sudlar har doim ham huquqni tanlashda taraflar eng uzviy bog'langan mamlakat huquqini tanlashi lozim [21]. Bunda taraflarning shartnomaviy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolari uchun eng uzviy bog'langan mamlakat huquqi bu shartnoma shartlari bajariladigan mamlakat huquqidir. Shartnoma shartlari bajariladigan mamlakat huquqiga amal qilish taraflar uchun ham kamroq xarajat qilish va ishga oid dalillarni topish masalalarida yengiliklar taqdim etadi.

### XULOSA

Taraflarning erk muxtoriyati prinsipi asosida huquqni tanlashi prinsipning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Taraflar shartnomaviy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolari uchun huquqni kelishuv asosida tanlay oladilar. Taraflar shartnomalarida huquqni nafaqat oshkora ochiq ifoda etishlari, balki tanlovlarini ochiq namoyon etmasdan ishora sifatida ham keltirishlari mumkin. Lekin taraflar ayrim holatlarda shartnomalarida ularning huquqni tanlashga oid tanlovini ko'rsatmasligi ham mumkin. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1189 – moddasida, taraflar o'zlarining huquqni tanlashga oid kelishuvini nafaqat ochiq ifoda etilgan holda kiritishi, balki ishora tarzida ham kiritishi mumkinligi va taraflar tanlovlarini ishora tarzida ifodalaganlarida sudlar taraflarning tanlovini shartnomaning umumiy xusuiyatlari va taraflarning shartnomaviy munosabatlardan erishmoqchi bo'lgan natijalaridan kelib chiqib aniqlashlari lozimligi to'g'risidagi qoida kiritilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ushbu holatda sudlar uch bosqichli usuldan foydalanishi maqsadga muvofiq hisobanadi. Ushbu uch bosqich taraflar tomonidan shartnomaning bandlarida taraflar tomonidan keltirilishi mumkin bo'lgan huquqni aniqlash va taraflarning tanlovi mavjud bo'lganida ushbu huquq asosida ularning nizolarini ushbu huquq asosida hal etishdir. Ikkinchi bosqich bu xalqaro shartnomalarda



tafllar tomonidan keng qo'llaniladigan usuldir. Ushbu bosqichda tafllar tomonidan ochiq ifodalanmasdan, ishora tarzida tanlangan huquq sudlar tomonidan aniqlanib ushbu huquq asosida ularning nizolari ko'rib hal etiladi.

Uchinchi bosqich bu baxsli masalalardan bo'lib tafllar tomonidan huquq shartnomalarida ko'rsatilmaganida va ular ko'zda tutgan huquq ham shartnomadan anglashilib bo'lmaganida, tafllar eng uzviy bog'langan mamlakat huquqi ular nizolari uchun qo'llaniladi. Lekin ushbu jumla yoki tushuncha ham baxsli masaladir. Ushbu jumla ham izoh talab qiladi. Hamish ham tafllar uzviy bog'langan mamlakatni aniqlash sudlar uchun oson kechmasligi yoki bu holat tafllarning shartnomasidan aniqlashtirilib bo'lmasligi mumkin. Shu sababli ham tafllar eng uzviy bog'langan mamlakat huquqi sifatida bunda sudlar shartnomaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib tafllarning mamlakatlari huquqini yoki tafllar tomonidan shartnoma shartlari bajariladigan mamlakat huquqini yoki tafllar kelajakda shartnomaviy munosabatlarga kirishishi mumkin bo'lgan mamlakat huquqini ularning nizolari uchun qo'llaniladigan huquq deb hisoblashi maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi
2. Mills A. Party Autonomy in Private International Law, Cambridge University Press, 2013, pp.580.
3. Keyes M. and Marshall B. Jurisdictional agreements: Exclusive, optional and asymmetrical, 11 Journal of Private International Law, 2017.
4. Merret L. The future enforcement of asymmetric jurisdiction agreements, 67 International and Comparative Law Quarterly, 2018.
5. Saumier G. Article 3 of the Hague Principles: A Response to Peter Mankowski, 22 Uniform Law Review, 2017.
6. Arzandeh A. The law governing arbitration agreements in England, 2013, Lloyd's Maritime and Commercial Law Quarterly, 31.
7. Peari S. and Khaendira S. Party Autonomy in the Choice of Law: Some Insights from Australia, 2021, Liverpool Law Review, 275 – 296.
8. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga Sharh, 2013.
9. Fentiman R. Unilateral Jurisdiction Agreeents in Europe, Cambridge Law Journal, 2013, no 24, pp.72 -75.
10. Vita Food Products v. Unus Shipping Co. (1939) available at [https://www.bailii.org/uk/cases/UKPC/1939/1939\\_7.pdf](https://www.bailii.org/uk/cases/UKPC/1939/1939_7.pdf)
11. Mills A. Party Autonomy in Private International Law, Cambridge University Press, 2013, pp.580.

12. Fentiman R. Unilateral Jurisdiction Agreements in Europe, Cambridge Law Journal, 2013, no 24, pp.72 -75.

13. A. Mills, Conceptualizing Party Autonomy in Private International Law, available at <https://www.cairn.info/revue-critique-de-droit-international-prive-2019-2-page-417.htm>

14. Johns F. Performing Party Autonomy, American Journal of Comparative Law, 2012. No.71, pp. 78-80.

15. Graziano T. K. The Hague solution on choice –of- law clauses in conflicting standard terms: paving the way to more legal certainty in International Commercial Contracts, 22 Uniform Law Review, 2017.

16. Reese Willis L. M. Power of parties to choose law governing their contract, Proceedings of the American Society of International Law at Its Annual Meeting (1921-1969) © 1960 Cambridge University Press.

17. Basedow J. The Hague Principles on Choice of Law: their addressees and impact, Uniform Law Review, 2017, pp.304.

18. Bermann P. S. “International Standards” as a choice of law option in International Commercial Arbitration, 2016, 27 American Review of International Arbitration 423.

19. Mills A. The privatization of private law (and) International Law, 2023 Current Legal Problems, <https://doi.org/10.1093/clp%2Fcuad003>

20. Mills A. International Law since the Cold War, 2024, Journal of International Private Law, Vol.XII.

21. Justifying and challenging Territoriality in Private International Law, 2023, Oxford University Press.